

	<p>8. Августиник А. И. "Керамика", Ўқув қўлланма. М.: «Искусство», 1972. – 182 б.</p> <p>9. Акунова Л.Ф., "Материаловедение и технология производства художественных керамических изделий", Дарслик. М.: «Искусство», 1979. -213 б.</p> <p>10. Лукич Г. "Конструкирование художественных изделий из керамики", Дарслик. М.: "Фан", 1979. – 120 б.</p> <p>11. Будников П.П. "Фарфор", Ўқув қўлланма. М.: "Фан", 1985. -130 б</p> <p>12. Marylin Scott. The potter's bible. New York.2010.Avenue Suite 2006</p> <p>IX. Axborot manbalari</p> <p>1. http://www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.</p> <p>2. http://www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumati portalı.</p> <p>3. www.pedagog.uz</p> <p>4. www.csipi.uz</p> <p>5. www.pedagog.uz</p> <p>6. www.edu.uz</p> <p>7. www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)</p> <p>8. www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lif resurslari portalı</p>
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “ <u>29</u> ” <u>08</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: I.M.Marasulova CHDPU, Tasviriy san'at va dizayn katta o'qituvchisi, O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi.
9.	Taqrizchilar: O'.N.Nurtoev - Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at kafedrasи mudiri p.f.n., dotsent B.B.Baymetov - CHDPU, "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasи p.f.n. professori.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**AMALIY BEZAK SAN'ATI
O'QUV DASTURI**

- | | |
|--------------------|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta'lif |
| Ta'lif sohasi: | 110000 – Ta'lif |
| Ta'lif yo'nalishi: | 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi |

Fan/modul kodi ABS306	O'quv yili 2025-2026	Semestr 5	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 6		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yukla ma (soat)
	Amaliy bezak san'ati	90	90	180
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad –tasviriy san'at o'qituvchisini Amaliy bezak san'ati fani nazariyasi va amaliy ko'nikmalari bilan qorollantirish, ijodiy qobiliyatini o'stirish, tasviriy san'atga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, hamda pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashdan iborat. Fanning vazifasi – bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini badiiy jixatdan tarbiyalash, ularning badiiy didlarini yuksaltirish, amaliy bezak san'at asarlarini orqali milliy qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishtirish, ularni nafosat borasidagi fikr va muloxazalarini yuksaltirish, amaliy bezak san'ati asarlarini ko'rish, tushunish va zavqlanish kunikmalarini xosil kilishdan iborat. II. Amaliy qism (amaliy mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: <ul style="list-style-type: none"> 1-mavzu. O'zbekiston amaliy san'ati rivojida kulolchilikning o'rni va badiiy kulolchilik buyumlarini loyihalashtirishdagi zamonaviy yondashuvlar. 2-mavzu. Muzeysiga tegishli milliy lagan namunasidan nusxa ko'chirish. 3-mavzu. Kompozitsion dekorativ bezakli likobchalar loyihasi <p>Doira ichida 8 ta o'simlik elementlaridan yig'ilgan kompozitsiya qoralamalari ishlab chiqiladi. Ishlangan qoralamalarni tayyorlashda kompozitsiyaning asosiy yechimlaridan foydalilanadi. 20 sm doira ichida kompozitsiyalarning 8 tasi tanlab olinadi va ular aniq chizib chiqiladi. Doiradagi kompozitsiyalar iliq yoki sovuq ranglarda turlab chiqiladi va hajmi</p>			

	ajratilgan dam olish zonalarini bezash ishlarini aniq rejalashtirish vazifalarini ham bilishlari lozim .
4.	V. Ta'lif texnologiyalari va metodlari: <ul style="list-style-type: none"> • amaliy mashg'ulotlar; • interfaol keys-stadilar; • yangi g'oyalalar yaratish(mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • kasb mahorati o'stirib borish; • ijodiy ishlar yaratish va namoyish qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishslash va ko'rgazmalar tashkil qilish
5.	VI. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishlarini ko'rikka taqdim etishi zarur.
6.	VII. Asosiy adabiyotlar: <ol style="list-style-type: none"> 1. А.Хакимов. Прикладное искусство Узбекистана. Традиции и инновации. Ташкент. Юнеско. 2013. 211 б. 2. Н.П.Наварро, М Пилер. Декоративные керамики, история. Москва. 2005. 204 б. 3. Н.П.Наварро. Дикорирование керамики. Издательский дом Ниола 21-век. 2005. 146 б. VIII. Qo'shimcha adabiyotlar <ol style="list-style-type: none"> 1.Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент-1991 йил 2.Sultanov X.E. Tasviriy san'at ta'limida innovatsion klaster yondashuvu //Monografiya, T.:“VNESHINVESTROM” МЧЖ, 2022./ -131 bet. 3.Sultanov X.E. Rangtasvir (Akvarelda natyurmort ishslash) // O'quv qo'llanma T.:“VNESHINVESTROM” МЧЖ, 2019. 161 б. 4.Gilmanova N.V. Rangtasvirda yorug'blik va rang. o'quv qo'llanma, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent -2012. 5. Наварро М.П. “Декорирование керамики : история, основные техники”. Дарслик. М.: “Ниола 21-й век”, 2005. - 144 б. 6. Якимович А. К. “Искусство и культура XII-XIII веков”, Дарслик. Санкт-Петербург.: “Азбука классика”, 2004. – 440 б. 7. Миклашевский А.И. “Технология художественной керамики”, Дарслик. М.: “Петербург”, 1971. – 160 б.

	<p>4.Konstruksiyalash 5.Loyihani rang bilan qidirish 6.Loyihani masshtablash 7.Loyihani qirqimi ustida ishlash 8.Qirqimni planshetga joylashtirish</p> <p>6 - mavzu. Intererda devorga osiladigan devoriy surat yoki rangli bo‘yoqlar, emallar, sirlar qo‘shilgan aniq chizmalar loyihasi.</p> <p>1.Mavzuga doir qoramalar qidirish 2.Devoriy suratni umumiyo ko‘rinishi 3.Loyihani masshtablash 4.Loyihani planshetga joylashtirish 5.Loyihani rang bilan ishlash 6.Loyihani pardozlash 7.Loyihani interer bilan bog‘lash</p> <p>7 - mavzu. Vaza, panjara, favvora, panno, bog‘-rog‘lar uchun dekorativ kompozitsiya.</p> <p>1.Loyihaga qoramalar qidirish 2.Qoramama rangda qidirish 3.Loyihani konstruksiyasi 4.Loyihani masshtabi 5.Planshetda joylash 6.Planshetda rangda ishlash 7.Loyihani yakunlash.</p>
3.	<p>IV. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.</p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - fan haqida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi kerak; - talabalar kulolchilik buyumlarining ko‘p ko‘rinishli turlari, grafik loyixalash usullari, ularni xom ashyoda bajarish uslublari badiiy bezak prinsiplari, ishlab chiqarish texnologiyasi haqida tasavvurga ega bo‘lishi; <ul style="list-style-type: none"> - turli xil asarlar yaratish va yangi zamонави mahsulotlarni yaratishning milliy uslubda kompozitsion yechimini topishda ham loyihalash fanidan mohirona foydalanish; badiiy ta’lim asosida bo‘lajak malakali mutahassis kadrlar yetishtirishda bilim malakalariga ega bo‘lish; - turli ko‘rinishdagi kulolchilik materiallaridan har bir alohida hollarda foydalanishni, quritish va kuydirish jarayonini, qizil loyda kurs ishlarini bajarishni; xom ashyoning (qizil loy, fayans) turli sohalarda qo‘llanilishini (relef, devoriy pannolar, barelef, dumaloq haykallar va boshqalar); joylar va

	<p>bo‘yicha soya beriladi. Ishning yakunida oxirgi bezaklar beriladi va planshetga ramka chiziladi. Likobchalarni o‘lchamlari bo‘yicha planshetga komponovka qilinadi.</p> <p>4-mavzu. Sovg‘a uchun dekorativ bezakli shokosa loyihasi.</p> <p>Mavzu bo‘yicha qoramalar tayyorlanadi. Shokosaning aniq shakli topiladi va planshetga kompozitsion joylashtiriladi. Rang bilan turlanadi va hajmi ko‘rsatiladi.</p> <p>5-mavzu. Muzeysga tegishli rangli angoblar bilan bezatilgan milliy ko‘za idish loyihasi</p> <p>Muzeydan usta kullolar ishlaridan namunalar olinadi. Olingan namuna ko‘za idish sinchiklab o‘rganib chiqiladi. O‘lchamlari bo‘yicha chizib planshetga joylashtiriladi. Rang bilan ishlanadi va hajmi ko‘rsatiladi.</p> <p>6-mavzu. Gullar uchun naqshli kulolchilik buyumi loyihasi.</p> <p>Kulolchilik buyumlariga qoramalar tayyorlash. Ishlatilayotgan buyumlarga mavzu tanlanib qoralamada, eskizlar ishlaniladi, hajmi ko‘rsatiladi</p> <p>7-mavzu. Animalistik haykalcha loyihasi</p> <p>Mavzu bo‘yicha qoramalar tayyorlanadi. Tanlab olingan hayvonni harakterini plastikasini va va kompozitsion yechimi ochib beriladi. Planshetga joylashtiriladi. Rang bilan ishlanadi va hajmi ko‘rsatiladi.</p> <p>8-mavzu. Bezakli gultuvak, vaza loyihasi.</p> <p>Gultuvak yoki vaza formasi qoralamada shaklida qidiriladi. Mavzusi aniqlanib, chiqiladi. Planshetga joylashtirilib, ranglarda ishlanadi va hajmi ko‘rsatiladi. Planshetga ramka chiziladi va pardozlanadi.</p> <p>9-mavzu. Choy yoki qahva servizi loyihasi.</p> <p>Serviz formasini qidirish, qoramalar tayyorlash. Mavzusi bo‘yicha qoramalar izlash. Servizni qulayligi haqida izlanish. Izlanish asosida loyihalar ishlash. Loyihalarni planshetga joylashtirish. Ularni rang bilan ishlash. Talabalarga loyiha masshtabi va konstruksiyalarini o‘rgatish va hajmini ko‘rsatish. Har bir detalni qirqimi ustida ishlash. Planshetga joylashtirish va ramkaga olish.</p> <p>10-mavzu. Ijodiy yondoshgan holda mavzuli haykal guldon loyihasi.</p> <p>Avval hayvon xarakteri bo‘yicha qoramalar qidiriladi. Keyin guldon formasi ustida ishlanadi. Har ikkisi birlashtirilib, ijodiy yondoshgan holda guldonni umumiyo ko‘rinishi topib olinadi. Planshetga joylashtiriladi. Rang bilan ishlanib, hajmi ko‘rsatiladi. Ramkaga olinib, ish yakunlanadi.</p>
--	--

11-mavzu. Intererda devorga osiladigan devoriy surat yoki rangli bo‘yoqlar, emallar, sirlar qo‘shilgan aniq chizmalar loyihasi.

Devoriy surat (panno)mavzusi bo‘yicha qoramalar tayyorlanadi. Interer bilan bog‘lanish katta ahamiyatga ega. Planshetga pannoni loyihasi joylashtiriladi, ranglar bilan ishlanadi. Ikkinci planshetga interer grafik chizmasi (perspektivasi) chiziladi. Panno guldon bilan kompleks, bir-biriga bog‘langan bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Faqat panno bilan guldon rangda ishlanadi.

12-mavzu. Intererga mos guldon loyihasi.

Pannoga mos ravishda guldon formasi ustida ishlanadi. Qoramalar chiziladi. Planshetga joylanadi va rang bilan ishlanadi.

13-mavzu. Ustunlarni bezatish uchun dekorativ plitkalardan kompozitsiya.

Talabalar o‘zlariga yoqqan mavzu bo‘yicha interer yoki ekstererda joylashagan ustunlarni bezatish uchun dekorativ plitkalardan kompozitsion qoramalar tayyorlaydi. Ustunlarni bezatish, manzarali elementlarni atrofidagi predmetlar bilan ko‘lamlilik nisbatini va xomashyoda kompozitsiya bajarish bilan bog‘liq vazifalar qo‘yiladi. Planshetda aniq chizmali loyiha mashtabdan bajariladi. Bir qismining konstruktiv chizmasi chiziladi. Vazifalar bo‘yicha belgilangan ish kompleks olib boriladi.

14-mavzu. Vaza, panjara, favvora, panno, bog‘-rog‘lar uchun dekorativ kompozitsiya.

Talabalar o‘zlariga yoqqan mavzu bo‘yicha qoramalar tayyorlaydi. Xonani qismrlarga ajratishda kulolchilik dekorativ panjarani to‘g‘ri joylashtirishni, ekstererda dam olish zonalarini obod qilish, manzarali elementlarni atrofidagi predmetlar bilan ko‘lamlilik nisbatini va xomashyoda kompozitsiya bajarish bilan bog‘liq vazifalar qo‘yiladi. Planshetda aniq chizmali loyiha mashtabdan bajariladi. Bir qismi konstruktiv chizmasi chiziladi. Kompleks ish olib boriladi.

15-mavzu. Interer uchun dekorativ panno kompozitsiyasi.

Talabalar interer uchun o‘zlariga yoqqan mavzuli panno kompozitsiyasi bo‘yicha qoramalar tayyorlaydi. Kulolchilik dekorativ pannoni to‘g‘ri joylashtirishni, intererni bezash, manzarali elementlarni atrofidagi predmetlar bilan ko‘lamlilik nisbatini va xomashyoda kompozitsiya bajarish bilan bog‘liq vazifalar qo‘yiladi. Planshetda aniq chizmali loyiha mashtabda bajariladi. Bir qismining konstruktiv chizmasi chiziladi. Kompleks ish olib boriladi.

III. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan rassom, naqqosh, me’morlar ijodi haqida prezentsiyalar tayyorlaniladi. Belgilangan mavzu bo‘yicha talabalar prezentsiyalar topshiradi. prezentsiyalarga mustaqil ta’lim soatlarining teng yarmi ajratiladi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1-mavzu. Muzeydan lagan namunasini ko‘chirish.

1. Muzey asarlaridan namunalar loyixalash
2. Dekorativ bezakli likobchalarни loyixalash
3. Angob naqshli devorga osiladigan bezakli laganchalarni loyixalash
4. Muzey namunasi rangli angoblar bilan bezatilgan ko‘za idish loyihasi (kopiya)
5. Angob, naqshli sut, sharbat, qimiz, ayron soladigan idish, ko‘za
6. Loyihani planshetga joylashtirish

2-mavzu. Muzey namunasi rangli angoblar bilan bezatilgan ko‘za idish loyihasi

- 1.Muzey namunalari bilan tanishish
- 2.Tanlangan namuna ustida ishlash
- 3.Qoramalar tayyorlash
- 4.Ko‘za idish loyihasi
- 5.Ko‘za idishni planshetga joylashtirish
- 6.Ko‘za idishga rang berish
- 7.Ko‘za idishni pardozlash

3-mavzu. Sovg‘a uchun dekorativ bezakli shokosa krujka loyihasi.

- 1.Mavzuga doir qoramalar qidirish
- 2.Loyihani rangda qidirish
- 3.Loyihaning mashtabi
- 4.Loyiha qirqimi
- 5.Loyihani planshetga joylash
- 6.Loyihaga rang berish

4-mavzu. Animalistik haykalcha loyihasi

- 1.Koramalar tayyorlash
- 2.Xaykalcha loyixasi
- 3.Loyixani planshetga joylashtirish
- 4.Rang bilan ishlash
- 5.Xaykalchani pardozlash
- 6.Planshetda rang bilan ishlash

5 - mavzu. Choy yoki qahva servizi loyihasi.

- 1.Mavzuga doir qoramalar qidirish
- 2.Servizni qulayligi haqida tushuncha berish
- 3.Loyiha konstruksiysi ustida ishlash